ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI
nomli ko'p tarmoqli masofaviy,onlayn respublika konferensiyasi

Sayt havolasi:https://e-conference.uz/index.php/itjm Sentabr,2026

YANGI O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI ERKINLIGINING HUQUQIY KAFOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Karimov Islombek Ilxambek o'g'li
"LAWYERS FAMILY"
advokatlik byurosi advokati



ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlashning huquqiy kafolatlari, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari hamda davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, 2026 yil 17 avgustda qabul qilingan O'RQ–1168-son Qonun bilan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarining asosiy prinsiplari qonun darajasida belgilab berilgani, ularning tadbirkorlik muhitida huquqiy aniqlik, barqarorlik va ishonchni ta'minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining tengligi, xususiy mulkning daxlsizligi, korrupsiyadan xoli bo'lish, qonunchilikning barqarorligi va aniqligi kabi prinsiplarning huquqiy mazmuni ochib beriladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27 avgustdagi PF–175-son Farmonida belgilangan tadbirkorlik subyektining haqliligi prezumpsiyasi ham tadbirkorlik faoliyati erkinligining muhim kafolati sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, huquqiy kafolatlar, tadbirkorlik subyekti, xususiy mulk, huquqiy aniqlik, qonunchilik barqarorligi, tadbirkorlik subyektining haqliligi prezumpsiyasi, davlat organlari, tadbirkorlik huquqi.

Kirish

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati erkinligi iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim huquqiy va institutsional omillardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikda belgilangan tartibda erkin faoliyat yuritishi xususiy tashabbusni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish, raqobat muhitini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy faollikni oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlash faqat tadbirkorga muayyan huquqlarni berish bilan cheklanmaydi. Ushbu erkinlikning real amal qilishi uchun davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan samarali huquqiy kafolatlar tizimi ham mavjud bo'lishi lozim.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini maqbullashtirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay huquqiy muhit yaratishga qaratilgan qator huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2026-yilda qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar tadbirkorlik faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlarini yangi mazmun bilan boyitmoqda. Jumladan, 2026 yil 17 avgustda

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qabul qilingan O‘RQ–1168-son Qonun bilan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarining asosiy prinsiplarini belgilashga qaratilgan yangi normalar kiritildi. Mazkur qonun 2026 yil 18 noyabrdan kuchga kirishi belgilangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining erkinligi iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining erkin va qonuniy faoliyat yuritishi nafaqat xususiy manfaatlarni ta’minlaydi, balki yangi ish o‘rinlari yaratilishi, investitsiyalar jalb qilinishi, raqobat muhitining shakllanishi va davlat budjeti daromadlarining ortishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizmlar shakllantirilib, 2026 yilda mazkur yo‘nalishdagi islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2026 yil 17 avgust kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlarini mustahkamlashga hamda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1168-son Qonuni bilan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarining asosiy prinsiplari qonun darajasida aniq belgilab berildi.

Mazkur qonun bilan belgilangan yangi yondashuv tadbirkorlik subyektlari bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarining asosiy prinsiplari sifatida:

- qonuniylik;
- tadbirkorlikning erkinligi;
- tadbirkorlik subyektlarining tengligi;
- ishonchning himoya qilinishi;
- korrupsiyadan xoli bo‘lish;
- xususiy mulkning daxlsizligi;
- tadbirkorlikka oid qonunchilikning barqarorligi va aniqligi belgilanmoqda.

Ayniqsa, tadbirkorlikka oid qonunchilikning barqarorligi va aniqligi prinsipi tadbirkorlik muhiti uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tadbirkor o‘zining investitsiyaviy, moliyaviy va tashkiliy qarorlarini huquqiy muhitning barqarorligiga tayanib qabul qiladi.

Agar qonunchilik tez-tez va tadbirkor uchun oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan tarzda o‘zgarsa, bu tadbirkorlik tavakkalchiligini oshiradi. Shu sababli qonunchilikning barqarorligi prinsipi tadbirkorlik huquqining zamonaviy rivojlanish tendensiyalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining qonun va sud oldida tengligini ta’minlash davlat organlari qarorlarining xolisligi va qonuniyligini ta’minlashda muhim kafolat hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmoni bilan davlat organi va tadbirkorlik subyekti o‘rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatlarda “tadbirkorlik subyektining haqliligi prezumpsiyasi” amal qilishi belgilangan.

Unga ko‘ra, aks holat davlat organi tomonidan isbotlanmaguncha, tadbirkorlik subyekti qonunchilikka muvofiq harakat qilgan va o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajargan deb hisoblanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mazkur qoida ma'muriy-huquqiy munosabatlarda tadbirkorning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan muhim islohotlardan biri deb hisoblash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlash va tadbirkorlik subyektlarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar izchil takomillashtirilmoqda.

Mazkur islohotlar tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish, davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarini cheklash, huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash hamda qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 69-II-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2026 yil 17 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlarini mustahkamlashga hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ–1168-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–175-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 17 apreldagi "Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–63-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 noyabrdagi "Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–184-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 sentyabrdagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini takomillashtirishga oid PQ–374-son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ.
9. Tadbirkorlik huquqi bo'yicha ilmiy-huquqiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.